

O'zbekistonda bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari 2026 yil yanvar-iyun


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **664 914,4** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining real o'sish surati **116,9** %ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2025 yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi **539 045,2** mlrd so'mni tashkil etib, bu 2024 yilning mos davriga nisbatan **13,3** %ga ko'p. Mazkur press-relizda keltirilgan ma'lumotlar dastlabki hisoblanadi va qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushishiga qarab keyingi nashrlarda aniqlashtirilishi mumkin.

1-rasm. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'ati
2025–2026 yillar yanvar–iyun oylari



II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2026 yilning yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **41,3** foizni (**274 435,8** mlrd so'm) tashkil etdi. 2025 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan real o'sish sur'ati **119,4** foizga teng bo'ldi. Umumrespublika ko'rsatkichi hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli hududlar bo'yicha jami hajmlar O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yakuniy ko'rsatkichga to'liq mos kelmasligi mumkin.

Hududlar kesimida eng yuqori hajm Samarqand (**47 293,2** mlrd so'm yoki jami bozor xizmatlari hajmining **7,1** foizini tashkil etgan), Toshkent (**45 717,5** mlrd so'm yoki **6,9** foizini), Farg'ona (**44 161,4** mlrd so'm yoki **6,6** foizini) va Andijon (**33 988,9** mlrd so'm yoki **5,1** foizini) viloyatlarida kuzatildi. Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 521,7** mlrd so'mni yoxud umumiy xizmatlar hajmining **1,4** foizini tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2026 yil yanvar-iyun

	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi ¹	664 914,4	100,0	116,9
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19 731,3	3,0	116,4
Andijon viloyati	33 988,9	5,1	116,1
Buxoro viloyati	25 573,4	3,9	116,2
Jizzax viloyati	14 745,9	2,2	116,1
Qashqadaryo viloyati	31 302,4	4,7	115,8
Navoiy viloyati	16 083,2	2,4	118,9
Namangan viloyati	30 701,1	4,6	115,9
Samarqand viloyati	47 293,2	7,1	116,2
Surxondaryo viloyati	20 773,3	3,1	115,6
Sirdaryo viloyati	9 521,7	1,4	116,9
Toshkent viloyati	45 717,5	6,9	116,3
Farg'ona viloyati	44 161,4	6,6	115,7
Xorazm viloyati	23 190,2	3,5	116,3
Toshkent shahri	274 435,8	41,3	119,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2026 yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahridan tashqari, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori real o'sish sur'ati Navoiy (**118,9** %), Sirdaryo (**116,9** %), Qoraqalpog'iston Respublikasida (**116,4** %), Xorazm (**116,3** %), Buxoro (**116,2** %), Samarqand (**116,2** %), Jizzax (**116,1** %) hamda Andijon viloyatlarida (**116,1** %) kuzatildi.

O'zbekiston bo'yicha 2026 yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **17 325,4** ming so'mni, 2025 yilning yanvar-iyun oylarida esa **14 297,7** ming so'mni tashkil etdi. Real o'sish sur'ati **114,8**% ga teng bo'ldi.


Hududlar kesimida aholi jon boshiga eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida qayd etildi – **85 890,0** ming so'm. Bu ko'rsatkich 2025 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **16 652,5** ming so'mga oshgan. Shuningdek, Navoiy (**14 421,8** ming so'm), Toshkent (**14 398,7** ming so'm) va Buxoro (**12 108,1** ming so'm) viloyatlari ham nisbatan yuqori o'rinlarda. Eng past ko'rsatkich esa Surxondaryo viloyatida (**6 869,5** ming so'm) qayd etildi.

¹ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**
2026 yil yanvar-iyun


	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	17 325,4	114,8
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9 590,9	115,2
Andijon viloyati	9 618,8	114,1
Buxoro viloyati	12 108,1	114,6
Jizzax viloyati	9 374,4	114,0
Qashqadaryo viloyati	8 389,1	113,5
Navoiy viloyati	14 421,8	117,1
Namangan viloyati	9 587,5	113,8
Samarqand viloyati	10 756,5	114,1
Surxondaryo viloyati	6 869,5	113,2
Sirdaryo viloyati	10 028,1	115,1
Toshkent viloyati	14 398,7	114,3
Farg'ona viloyati	10 418,9	113,7
Xorazm viloyati	11 179,8	114,3
Toshkent shahri	85 890,0	116,9

2-rasm. Hududlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi
2026 yil yanvar-iyun, ming so'm



Hududlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining yuqori o'sish sur'ati Navoiy viloyatida (**117,1 %**) qayd etildi. Shu bilan birga, ko'rsatkichning yuqori dinamikasi Qoraqalpog'iston Respublikasi (**115,2 %**), Sirdaryo (**115,1 %**), Buxoro (**114,6 %**), Toshkent (**114,3 %**), Xorazm (**114,3 %**), Andijon (**114,1 %**), Samarqand (**114,1 %**), Jizzax (**114,0 %**) va Toshkent shahrida (**116,9 %**) ham kuzatildi.

3-rasm. Hududlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari, 2026 yil yanvar–iyun, %



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2026 yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **374 210,9** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **56,3** foizini tashkil etdi. 2025 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,8** foizga teng bo'ldi. Kichik tadbirkorlik subektlari bo'yicha baholash statistik hisobot ma'lumotlari, kuzatuv natijalari hamda Milliy statistika qo'mitasi tomonidan q'llaniladigan baholash tartib-taomillari asosida shakllantiriladi.

Xizmatlar hajmida kichik biznesning eng yuqori ulushlari Farg'ona viloyatida (**76,1%**), shuningdek, Surxondaryo (**75,1%**), Andijon (**74,8%**), Qashqadaryo (**73,7%**), Jizzax (**71,8%**), Toshkent (**71,3%**), Namangan (**71,3%**), Buxoro (**71,1%**), Xorazm (**70,4%**) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**69,9%**) kuzatildi. Bu ushbu hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda kichik tadbirkorlik subektlari muhim ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik ulushi nisbatan past (**42,4%**) bo'lishiga qaramay, kichik tadbirkorlik subektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi mamlakatda eng yirik bo'ldi va **116 248,9** mlrd so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subektlari ko'rsatgan xizmatlar hajmi boshqa hududlarga qaraganda pastroq. Bu ko'rsatkich 2026 yilning yanvar-iyun oylarida **6 457,3** mlrd so'mga teng bo'ldi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2026 yil yanvar-iyun

	Hajmi, mlrd so'mda	Jami hajmdagi ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	374 210,9	56,3	115,8
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13 799,0	69,9	113,8
Andijon viloyati	25 438,7	74,8	114,1
Buxoro viloyati	18 194,9	71,1	122,0
Jizzax viloyati	10 581,4	71,8	112,8
Qashqadaryo viloyati	23 064,3	73,7	114,1
Navoiy viloyati	9 403,5	58,5	116,9
Namangan viloyati	21 880,1	71,3	113,5
Samarqand viloyati	30 983,3	65,5	113,5
Surxondaryo viloyati	15 609,2	75,1	114,7
Sirdaryo viloyati	6 457,3	67,8	115,9
Toshkent viloyati	32 618,7	71,3	113,0
Farg'ona viloyati	33 595,3	76,1	114,8
Xorazm viloyati	16 336,3	70,4	110,7
Toshkent shahri	116 248,9	42,4	117,4

III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2026 yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'sishining asosiy omili savdo, moliya hamda transport xizmatlari hajmining ortishi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan maqsadli parametrlar doirasida xizmatlarning asosiy turlari monitoringi amalga oshiriladi.

2026 yilning yanvar-mart oylari ma'lumotlaridan boshlab, savdo xizmatlari hajmini hisoblash metodologiyasiga qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar zaxiralari o'zgarishini hisobga oladigan o'zgartirishlar kiritildi. Bu o'zgartirishlar xalqaro statistik standartlarga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida xalqaro ekspertlarning tavsiyalari inobatga olingan holda joriy etildi.

2026 yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichlarining qiyoslanuvchanligini ta'minlash uchun real o'sish sur'ati 2025 yilning tegishli davri uchun qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlar asosida hisoblandi.

Bozor xizmatlari umumiy o'sishiga eng katta hissani savdo xizmatlari (o'sish sur'ati **14,9 %**, umumiy o'sishdagi hisssasi **3,9 f.b.**), moliyaviy xizmatlar (**26,3 %**, **3,8 f.b.**), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**11,6 %**, **2,0 f.b.**), transport xizmatlari (**14,7 %**, **2,4 f.b.**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**22,1 %**, **1,7 f.b.**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**22,7 %**, **0,8 f.b.**), boshqa xizmatlar (**16,3 %**, **0,8 f.b.**), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**18,3 %**, **0,5 f.b.**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**16,8 %**, **0,3 f.b.**) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**24,6 %**, **0,3 f.b.**) qo'shdi.

Shuningdek, shaxsiy xizmatlar (**14,2 %**), kompyuterlar va maishiy buyumlarni ta'mirlash xizmatlari (**11,4 %**) hamda ijara xizmatlari (**7,4 %**) bo'yicha qo'shimcha ijobiy hissa qayd etilib, ular birgalikda umumiy o'sishga **0,4** foiz band qo'shdi.


Mazkur press-relizda keltirilgan 2025 yilning yanvar–iyun oylariga oid qayta ko'rib chiqilgan taqqoslama ko'rsatkichlar savdo xizmatlari hajmini hisoblashning yangilangan metodologiyasini o'zida aks ettiradi. Shu sababli ushbu ko'rsatkichlardan 2026 yilning yanvar–iyun oylariga nisbatan yillik taqqoslashda foydalanish lozim.

2026 yilning yanvar–iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlarining ulushi **25,6 %**ni, yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **17,3 %**ni, moliyaviy xizmatlarning ulushi **15,7 %**ni, transport xizmatlarining ulushi **15,6 %**ni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi **7,8 %**ni hamda ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi **3,6 %**ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
2025–2026 yillar yanvar–iyun

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2025 yil	2026 yil	
Xizmatlar – jami	539 045,2	664 914,4	116,9
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	40 339,4	51 942,3	122,1
moliyaviy xizmatlar	77 833,1	104 232,5	126,3
transport xizmatlari	88 303,7	103 936,6	114,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>42 955,0</i>	<i>54 589,5</i>	<i>117,1</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	95 266,2	115 153,8	111,6
savdo xizmatlari	140 828,0	169 953,7	114,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	13 442,6	16 222,2	118,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	18 805,9	23 772,6	122,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	9 051,8	11 256,0	116,8
ijara xizmatlari	6 590,1	7 554,7	107,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	6 650,8	7 791,7	111,4
shaxsiy xizmatlar	9 582,0	11 917,3	114,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	6 541,4	8 935,2	124,6
boshqa xizmatlar	25 810,2	32 245,8	116,3

4-rasm. Asosiy turlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
2026 yil yanvar-iyun, mlrd so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)


Qayta ko'rib chiqilgan taqqoslash bazasidan foydalangan holda, 2026 yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 2025 yilning mos davriga nisbatan **29 125,7** mlrd so'mga o'sib, **169 593,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida eng katta ulush – **41,5 %** chakana savdo xizmatlariga to'g'ri keldi. Ulgurji savdo xizmatlarining salmog'i **38,2 %** ga yetdi. Avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar savdo xizmatlari umumiy hajmining **20,3 %** ini tashkil qildi.

2025 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **19 887,6** mlrd so'mga oshib, **115 153,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlarning asosiy qismi – **96,3 %** oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatiga tegishli bo'ldi.

2026 yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi **103 936,6** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qildi – **52,5 %**, ya'ni **54 589,5** mlrd so'm. Transport xizmatlari hajmining o'sishi yuk va yo'lovchi tashish sohasidagi faollikning ortganini aks ettiradi.

Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi, foizda
2026 yil yanvar-iyun




2025 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2026 yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **26 399,4** mlrd so'mga ortib, **104 232,5** mlrd so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati **126,3** % ga teng bo'ldi.

2026 yilning yanvar-iyun oylarida yordamchi moliyaviy faoliyat, sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **87,9** % ni tashkil qildi. Sug'urta xizmatlarining solishtirma og'irligi **6,6** % ni, yordamchi moliyaviy faoliyat xizmatlariniki esa **5,5** % ni tashkil etdi.

2026 yilning ko'rib chiqilayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **51 942,3** mlrd so'mga yetdi. Eng katta ulush kompyuter dasturlash xizmatlari hissasiga to'g'ri keldi – **48,2** %. Shuningdek, ko'rib chiqilayotgan davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidan telekommunikatsiya xizmatlari ulushi **27,0** % ni, axborot sohasidagi xizmatlar **16,6** % ni, noshirlik xizmatlari **6,0** % ni, boshqa xizmatlar esa **2,2** % ekani qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi
yanvar-iyun, mlrd so'mda



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida kompyuter dasturlash xizmatlarining yuqori ulushi ushbu yo'nalishning raqamli xizmatlarni rivojlantirishda muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.

2026 yilning yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **23 772,6** mlrd so'mni tashkil etib, ularning tarkibida oliy ta'lim xizmatlari ulushi **42,4** % bilan ustunlik qildi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida (**16 222,2** mlrd. so'm) o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **90,8 %** ni tashkil etdi.

2026 yilning yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **11 256,0** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar ulushi **53,7 %** ni, shifoxona muassasalari xizmatlari **31,8 %** ni, shifokorlik amaliyoti va stomatologiya xizmatlari esa **14,5 %** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlariga izohlar

Press-relizda bozor xizmatlari hajmi joriy narxlarda keltirilgan. O'sish sur'atlari tegishli narx va tarif indekslaridan foydalangan holda taqqoslanadigan narxlarda hisoblanadi. Shu munosabat bilan qiymat ifodasidagi o'zgarishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning real hajmidagi o'zgarishlar alohida talqin qilinishi lozim. Ming so'mda ifodalangan jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar ham joriy narxlarda keltirilgan bo'lib, ularning o'sish sur'atlari taqqoslanadigan narxlarning tegishli metodologiyasiga muvofiq talqin qilinishi lozim.

Ma'lumotlar norasmiy va kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash uchun foydalaniladigan statistik kuzatuvlar natijalari inobatga olingan holda taqdim etilgan.

Ma'lumotlar dastlabki hisoblanib, keyingi nashrlarda ularga aniqliklar kiritilishi mumkin.

Xizmatlarning oylik hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari – tijorat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) bo'yicha statistik hisobotlar;

b) kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini oylik telefon so'rovlari, choraklik kuzatuvlar ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari asosida baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistik hisobot shakllari bo'yicha baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – muayyan davrda iste'molchilarga (shu jumladan norezidentlarga) xizmat ko'rsatuvchi barcha ishlab chiqaruvchilar, ya'ni ham xizmat ko'rsatishga ixtisoslashganlar, ham xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydiganlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida xizmatlar uchun hisoblangan to'lovlar QQS va aksizlarsiz, amaldagi bozor narxlarida hisobga olinadi.

Agar xizmatlar oldi-sotdi ob'ekti bo'lib, iqtisodiy jihatdan ahamiyatli narxlarda (ishlab chiqaruvchi xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplaydigan) sotilsa, mahsulot bozorbop hisoblanadi. To'lov naqd pul, bank kartalari va pul o'tkazmalari, jumladan elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ulgurji va chakana savdo korxonalari uchun mahsulot hajmi qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlarni sotishdan tushgan tushum va ularni sotib olish xarajatlari o'rtasidagi farq hamda qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar zaxirasidagi o'zgarishlar yig'indisi sifatida aniqlanadi (Eurostat, Handbook on prices and volume measures in national accounts, 2016).

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmasa) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tranzaksiya sanasida belgilangan so'm kursi bo'yicha shartnoma narxlarida qayta hisoblanadi.

Xizmatlarni faoliyat turlari bo'yicha tasniflash O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi O'zbekiston Respublikasi Mahsulotlar statistik tasniflagichi (MST)ning G–S seksiyalari qismida tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Handbook on prices and volume measures in national accounts

Tayyorlash uchun mas'ul:
*Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi*

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1281)

